

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**PECULIARITIES OF THE PREPARATION AND CONDUCT OF FUNERAL RITES****Abdulla Djumanov**

Master's student

University of Exact and Social Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: birth, mourning, death, commemoration, washing of the deceased, shrouding, shroud, situation report, return, corpse, sacred water, condolence, gathering of fire-worshippers, bone keepers.

Received: 26.04.25**Accepted:** 28.04.25**Published:** 30.04.25

Abstract: This article analyzes the history of the development of burial rituals, their distinctive features, preparation for funeral ceremonies, common characteristics of conducting rituals, as well as regional peculiarities. In addition, it presents reflections on the role of burial rites in social life, the washing of the deceased, the shrouding ritual, and subsequent mourning and commemorative ceremonies.

DAFN MAROSIMLARIGA TAYYORGARLIK VA UNI O'TKAZISHDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR**Abdulla Djumanov**

Magistratura talabasi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tug'ilish, aza, o'lim, motam, murda yuvish, kafanlash, kafanlik, vaziyatnoma, qaytish bo'ldi, mayit, mahram suv, ta'ziya, otashparastlar yig'isi, suyak egalari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada dafn marosimlarining rivojlanish tarixi, o'ziga xosligi, dafn marosimlariga tayyorgarlik, uni o'tkazishdagi umumiyliklar va hududiy o'ziga xos jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, dafn marosimlarining jamiyat hayotida tutgan o'rni, o'likni yuvish, kafanlash, dafn keyingi aza va motam kabi marosimlar xususidagi mulohazalar berilgan.

ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ И ПРОВЕДЕНИЯ ПОХОРОННЫХ ОБРЯДОВ**Абдулла Джуманов**

студент магистратуры

Университет точных и социальных наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: рождение, траур, смерть, поминки, омовение покойника, обёртывание в саван, саван, акт обследования, возвращение, умерший, святая вода, соболезнование, собрание огнепоклонников, хранители костей.

Аннотация: В данной статье проанализированы история развития обрядов захоронения, их особенности, подготовка к похоронным церемониям, общие черты проведения ритуалов, а также территориальные особенности. Кроме того, изложены размышления о роли похоронных обрядов в общественной жизни, омовении покойника, обряде обёртывания в саван, а также о последующих поминальных и траурных мероприятиях.

Dafn marosimlariga tayyorgarlik har doim alohida ahamiyat kasb etgan amallar sirasiga kiradi. Insonlar faqatgina dafn jarayoni bilan emas, balki unga tayyorgarlik ko'rish masalasiga ham katta e'tibor qaratib kelganlar. Har kim o'z hayotida o'limni istamasa-da, lekin dafn va unga bog'liq marosimlarni bilishga harakat qiladi. Chunki bu – har bir inson boshidan kechiradigan muqarrar haqiqatdir. Shu bois, dafn va unga aloqador marosimlarning nomlari va ularning mohiyatini o'rganish har bir odam uchun zarur sanaladi. Bu borada asosiy atamalar va ularning mazmunini qisqacha sharhlab o'tish maqsadga muvofiq.

Dafn – bu marhumni yerga topshirish bilan bog'liq rasm-rusum va odatlarning yig'indisidir. Insoniyat tarixining ilk bosqichlaridan boshlab dafn marosimlari geografik sharoit, ijtimoiy muhit, odamlarning imkoniyatlari hamda diniy-ilmiy qarashlarga qarab rivojlanib borgan. Har bir xalq dafn jarayonini o'ziga xos marosimlar asosida ado etadi [1].

Motam – inson vafoti munosabati bilan uning xotirasini yod etish maqsadida o'tkaziladigan marosimlardir. Motam marosimlari dunyoning barcha xalqlarida mavjud bo'lib, ular ham geografik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, diniy va ilmiy tasavvurlar ta'sirida shakllangan. Motam odatda marhum vafotidan keyingi ma'lum kunlarda, fasllar davomida yoki diniy bayramlarda ado etiladi. Ushbu tadbirlarda marhumning arvohini yod etish va uni rozi qilish maqsadida turli marosimlar bajariladi.

Aza esa sabr-toqat, marhumga hurmat va uning xotirasiga sadoqat ifodasidir. Qadimdan mavjud bo'lgan aza tutish odatlari xalqlarning diniy e'tiqodlariga ko'ra farq qiladi. Islom dinida aza tutish muddati uch kun deb belgilangan, ammo eri vafot etgan ayollar uchun “idda” muddati to'rt oy va o'n kunni tashkil etadi. Aza davrida ayollar ko'pincha oddiy matodan tikilgan qora yoki ko'k rangdagi kiyimlar kiyishadi. Ba'zi xalqlarda, xususan, o'zbeklar orasida azoni bir yilgacha davom ettirish, qora kiyim kiyib yurish, to'y va boshqa quvonchli marosimlarni o'tkazmaslik kabi odatlar mavjud. Marhum dafn etilgandan so'ng esa yetti, yigirma, qirq kunlik xotira tadbirlari, hayit oshi, yil oshi, kiryuvdi, payshanbalik, yakshanbalik va oqkiyar kabi marosimlar o'tkaziladi. Ushbu an'analar xalq hayotiga chuqur singib ketgan. Biroq, ularning ko'plab jihatlari shar'iy manbalarda o'z tasdig'ini

topmagani uchun, Islom olimlari bu kabi rasm-rusumlar o'rniga xayrli ishlarga rag'batlantiruvchi fatvolar chiqarganlar.

Motam va aza marosimlari tashqi ko'rinishda o'xshash bo'lsa-da, ma'noda bir-biridan farqlanadi. Motam odatda marhum vafotidan so'ng ilk qirq kun davomida o'tkaziladigan tadbirlar bilan bog'liq bo'lsa, aza esa muayyan davrga – marhumning yoshi, ijtimoiy mavqei va boshqa omillarga qarab belgilangan muddat davomida tutiladi. Aza davri yakunlangandan so'ng ham, marhumning oilasida yoki mahallada yangi bir o'lim hodisasi yuz bermaguncha aza ruhi saqlanib qolishi mumkin.

Islomiy e'tiqodda esa dafn jarayoniga tayyorgarlik, oxirat hayotiga tayyorgarlik sifatida talqin qilinadi. Bu tayyorgarlik, avvalo, insonning o'z kafanligini o'z halol topgan mablag'i hisobidan sotib olishi va uni saqlab qo'yishi bilan boshlanadi.

Kafan – bu marhum jasadini o'rash uchun tayyorlanadigan oq mato hisoblanadi. Islomiy aqidaga ko'ra, har bir vafot etgan musulmon erkak va ayolni kamida uch qatlamdan iborat kafanga o'rash va uni dafn qilish tiriklar zimmasidagi farzi kifoya sanaladi. Dafndan oldin marhum albatta g'usl qildirilib, poklanadi. Ammo shahidlar holatida g'usl va kafanlash amalga oshirilmaydi; ular o'z kiyimlari bilan ko'miladi. Kafansiz dafn qilinganlar holatida, buning javobgarligi marhumning o'ziga emas, balki bu ishga sababchi bo'lgan shaxslarga yuklatiladi.

Bugungi kunda kafan tayyorlash uchun zarur bo'lgan buyumlar ko'lami ancha kengaygan. Tarixiy manbalarga ko'ra, XIX va hatto XX asr boshlarida o'zbeklar orasida kafanlik – ya'ni salla, uzun oq ro'mol, paranji kabi buyumlar inson o'zi bilan olib yurishi kerak bo'lgan narsalar qatoriga kirgan. Uzoq safarga chiqayotgan yoki doimiy ravishda uydan uzoqda ishlaydiganlarga "kafaning yoningda bo'lsin" deya nasihat berilgan.

O'lim insonni kutilmagan holda yoki uzoq davom etgan kasallik natijasida topishi mumkin. Agar bemorning holati og'irlashib, o'lim yaqinlashgani ayon bo'lsa, uni toza va ozoda holatda saqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bemor yotgan xonadonda ishlatilgan oziq-ovqat boshqa joyga ko'chirilgan, bunday ovqatni iste'mol qilish nojoiz sanalgan.

O'lim oldi vasiyati – bu inson hayotining so'nggi pallalarida farzandlari, qarindoshlari, do'st-birodarlariga yo'llagan so'nggi so'zlari, nasihatlar hamda mol-mulk bo'yicha o'z istaklarini bayon qilishidir. Vasiyat maxsus bir vaqtda emas, istalgan paytda og'zaki yoki yozma shaklda ifodalangan bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda vasiyatnoma yozib, uni rasmiylashtirib qo'yish odati keng tarqalgan.

Vasiyatlarning mazmuni turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, o'g'il farzandga kim bilan uylanishini, qiz farzandni kimga uzatishni, mulkni kimga qoldirishni belgilab berish kabilar islomda ota-ona vasiyati oliy qadriyat sifatida baholanadi. Unga shak-shubha bilan qarash og'ir gunoh sanaladi.

Islomda vafot etgan inson mayit deb ataladi. Ruh tanadan chiqqach, marhumning iyagi bir parcha mato bilan bog‘lanadi, ko‘zlari esa muloyimlik bilan yopiladi.

O‘zbek xalqi orasida o‘lim holati “olamdan o‘tdi”, “vafot etdi”, “qazo qildi”, “hayotdan ko‘z yumdi”, “berib qo‘ydik”, “bandalikni bajo keltirdi” kabi iboralar bilan ifodalanadi. Qardosh qozoq xalqida esa bu hol “qaytis boldi” shaklida ifodalanadi [2, 91].

Marhumni atash ham mintaqalarga ko‘ra farqlanadi. Qashqadaryoda vafot etganlarga "o‘lik" yoki "murda" deyishadi, Surxondaryoda esa "mayit" termini qo‘llaniladi [3, 35].

Ta’ziya – arabcha so‘z bo‘lib, tasalli berish, hamdardlik bildirish, motam egalarini yupatish ma’nosini anglatadi. Ta’ziyada marhumning oila a’zolariga qarindoshlar, do‘stlar, qo‘shnilar va hamkasblar tomonidan hamdardlik izhor qilinadi. Islomda ta’ziya qilish savob ish hisoblanib, marhum uchun duo qilish eng foydali amallardan sanaladi. Janoza va ta’ziya marosimlarining asl maqsadi ham duo qilishga qaratilgan. Ta’ziya odatda marhum vafotidan keyingi uch kun ichida beriladi, ammo zarur holatlarda keyinroq ham ta’ziya bildirish mumkin.

Vafot haqidagi yozma xabar "ta’ziyanoma" (yoki nekrolog) deyiladi, motam marosimi o‘tkaziladigan uy esa "ta’ziyaxona" deb yuritiladi, motam tutayotgan shaxs "ta’ziyachi" sifatida ataladi.

Agar marhum yosh bo‘lsa, etnografik urf-odatlariga ko‘ra, ayollar hududiga qarab (masalan, qizil, yashil, och ko‘k) liboslar kiyib, sochlarini yoyib, devorga bosh urib, ko‘kragiga urib, yig‘lashgan. Marhum yigit bo‘lsa, uning rafiqasi marhumning to‘ni va telpagini kiygan. Boshqa odatlar qatorida esa marhumning kiyimlari ko‘z-ko‘z qilinib, ota-onasining oldiga qo‘yilgan. Bu qadimiy udumlar ayrim hududlarda hozirgacha davom etib kelmoqda.

Aza marosimlari insoniyat tarixida qadim zamonlardan beri shakllangan bo‘lib, ular faqatgina badiiy-estetik qimmatga ega emas, balki xalqning diniy, ijtimoiy va madaniy hayotini o‘rganishda etnografiya fani uchun ham bebaho manba sanaladi.

O‘rta asrlar tarixchisi Narshaxiy o‘zining mashhur “Buxoro tarixi” asarida Siyovush ibn Kaykovusning qaynotasi Afrosiyob tomonidan o‘ldirilganligi va bu hodisa xalq orasida chuqur iz qoldirganini qayd etadi: "Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari mashhur bo‘lib, u butun viloyatlarga tarqaldi. Kuychilar unga mos kuy yaratishdi, qo‘shiqchilar esa bu marsiyani otashparastlarning 'yig‘isi' deb atashdi" [4, 120].

O‘zbeklar orasida marhumni dafn etishdan oldingi muhim amallardan biri mayitni yuvish hisoblanadi. Marhum tanasining qanday ahvolda bo‘lishidan qat’i nazar, u albatta tozalab yuviladi. Masalan, Toshkent shahrida marhumni yuvish uchun maxsus "yuvg‘uchi" – g‘assol chaqiriladi. G‘assol qabrning tayyorligi va janoza marosimi vaqti asosida xabardor qilinadi. Etnografik tadqiqotlardan ma’lumki, O‘zbekistonning ayrim shaharlarida ham maxsus g‘assollar faoliyat olib boradilar [5, 111].

G'assollar marhum xizmatiga chaqirilganda rad javobi bermaydilar. Mayitning qanday vafot etgani – cho'kib ketganmi, falokat qurbonimi, uzoq kasallikdan vafot etganmi – yoki uning ijtimoiy va moliyaviy holati g'assol uchun ahamiyat kasb etmaydi [6, 11].

Umuman olganda, marhumlarga xizmat qiluvchi professional g'assollar o'zbeklar va voha tojiklari orasida mavjud. Tog'lik tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar va kurd xalqlari orasida esa marhumni yuvish amali yaqin qarindoshlar tomonidan bajariladi [7, 143]. Masalan, Toshkent viloyatining Qo'qonovul qishlog'ida "suyagimizni begonaga ushlatmaymiz" degan qarash asosida mayitni yuvish, kafanlash va dafn etish ishlari marhumning qarindoshlari — "suyak egalari" tomonidan ado etiladi [8, 87].

An'anaga ko'ra, erkak marhumni erkak g'assol, ayol marhumni esa ayol g'assol yuvadi. Yuvish jarayonida marhumning oila a'zolaridan ikki-uch nafar yaqin qarindoshi — o'g'li, qizi, ukasi yoki opasi — yordam beradi. Agar marhum hayotligida maxsus bir kishiga uni yuvishni vasiyat qilgan bo'lsa, aynan o'sha shaxs yuvishda faol qatnashadi. Qarindoshlardan yuvishga qatnashish istagini bildirganlar esa "o'lik egalari"ning roziligi bilan ushbu marosimda ishtirok etishi mumkin.

Ba'zi tadqiqotchilar dafn marosimining asosiy ishtirokchilari bo'lgan g'assollarni qadimgi zardushtiylikdagi o'liklarga xizmat qiluvchi "nasasa"lar bilan qiyoslashadi [9, 22]. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, zardushtiylikda vafot etgan inson jasadi yuqumli kasallik manbai — *nasa* sifatida qaralgan. Bu e'tiqodga ko'ra, tirik inson murdaga yaqinlashsa, unga zarar yetishi, kasallik yoki o'lim kelishi mumkin deb hisoblangan. Shunga ko'ra, o'lik bilan bevosita aloqada bo'ladigan shaxslar – g'assollar jamiyatda ma'lum darajada ijtimoiy cheklovlarga duch kelishgan. Hatto tarixiy manbalarda aytilishicha, g'assollar bozorda yurganda boshqalarga yaqinlashayotganini bildirishi uchun qo'ng'iroq chalib yurishgan [10, 262].

XX asrning 50-60-yillariga qadar Farg'ona vodiysida, xususan Marg'ilon shahrida g'assollar belbog'lariga qovoqdan yasalgan cho'mich osib yurganlar. Bu cho'mich, shuningdek, marhumni yuvishda ishlatiladigan haltasimon qo'lqop g'assollikning tashqi belgisi sifatida xizmat qilgan [7, 144]. Toshkentda esa g'assollarning maxsus kiyimlari bo'lmagan, ammo ular o'rta barmoqlariga kumush uzuk taqishgan. Ushbu uzuk taqish odati hozirgi kunda ham saqlanib kelmoqda, lekin endi tilla uzuklar taqiladi. Tilla uzuklar qo'llarni doimo poklab turishi kerak, degan tasavvur mavjud [11, 159].

Shahar o'zbeklarida g'assollik ko'pincha ota-onadan farzandga meros bo'lib o'tadi. Hozirgi kunda shaharda faoliyat yuritayotgan g'assollarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. G'assollik kasbini o'z ajdodlaridan meros qilib olgan yuvg'uchilar.
2. Shogird tushish an'anasiga ko'ra g'assollik kasbini egallagan yuvg'uchilar [8].

G'assollar, odatda, ikki kishidan iborat bo'lib, ona-qizi, qaynona-kelin, ota-o'g'il kabi birlashgan holda yuvish amallarini bajarishgan. Marhumning yaqinlari yoki qarindoshlari suyuqlikni

isitishda yordam berishgan. G'assollar mayitni yuvishda qo'llariga kafanning matosidan tayyorlangan qo'lqop kiyishgan. Agar marhum kekxa kishi bo'lsa, befarzand ayollar tomonidan qo'lqopni farzandsizlikka qarshi magik vosita sifatida ishlatishgan. Yosh marhumlar holatida esa qo'lqop ko'pincha xonadonning o'zida qolgan. Yana bir o'zgarish shundaki, hozirda marhumni yuvgan g'assollarga boshdan oyoqqa butun libos sovg'a qilinadi, o'tmishda esa faqat kiyim-bosh berilgan [5].

Marhumni yuvish bilan bog'liq urf-odatlar, ehtimol, zardushtiylik dinidan kelib chiqqan. Zardushtiylikka ko'ra, vafot etgan inson jasadini nopok deb hisoblanadi va uni yuvish orqali poklanadi. XX asrda murda yuvilgach, yuvilgan suvni to'kib tashlashda o'zgarishlar yuz berdi. Asr boshlarida mayit yuvilayotganda suv uy ichida chuqur qazilgan o'ziga xos joyga to'kilib, keyinchalik o'sha joy quruq tuproq bilan to'ldirilgan. Bu yerga faqat odam oyog'i tegmasligi kerak edi [8].

Mayitni yuvish jarayonida yig'ilar va marhumning yaqinlari yig'lamasliklari kerak edi. Ba'zi hududlarda, murda yuvilgan paytda "davra" marosimi o'tkazilgan. Bu marosimda oila a'zolaridan biri qo'yni mullaga topshirar, mulla esa uchunchi bir kishini chaqirib, o'lgan insonning gunohini bir yilga ko'tarib yurishini qabul qildirgan [3].

Marhumni kafanlash islomiy marosimlarning bir qismi hisoblanadi. Kafanlash jarayonini g'assol va uning yordamchilari amalga oshiradi. Marhumni kafanlash uchun zarur bo'lgan mato "o'limlik tuguni" tarkibiga kiradi. Bu tugun quyidagi buyumlardan iborat: chit ro'mol, ro'molcha, mehmon o'rin uchun choyshablar, marhum xona eshigi oldiga joynamoz, dasturxon, sochiq va boshqa ashyolar. Agar marhum erkak bo'lsa, 3-4 metr uzunlikda beqasam, agar ayol bo'lsa, 3-4 metr uzunlikda atlas bo'ladi. Shuningdek, g'assolga, go'rkovga beriladigan sarpolar va 30 metr oq surp, igna, ip, sovun va atir ham kafanlik uchun tayyorlanadi.

Agar musulmon kishi uzoq safarda yoki yo'lda vafot etsa, uning salla kafanlik vazifasini bajargan. Shu sababli sallaning uzunligi 8 metrdan kam bo'lmagan [12, 82].

Kafanlik matosi, har bir musulmonning halol mehnati orqali orttirgan mablag'i bilan sotib olinishi lozim. Shaharlik o'zbeklarda kafanlikni oldindan olish, egasiga umr tilab, tasbeh aytib turish, shuningdek, kafanlikni zaruriyat yuzasidan boshqa bir kishiga berish katta savob sanaladi.

Kafanlash tartibi, islom dinida mayit ustida bajariladigan sha'riy amaldir. Sunnat bo'yicha erkaklar uchun uchta kafanlik: birinchi lifofa (ustki qavat), ikkinchi ishton va uchunchi ko'ylak bo'ladi. Lifofa, murdaning bosh va oyog'idan bir qarich uzunlikda bo'ladi. Ishton, murdaning jasadini boshdan oyog'igacha o'rab turishi kerak. Ko'ylak ikki qavat bo'lib, yelkasidan oyog'ining betigacha davom etadi. Kafanning eni murdaning jasadiga bog'liq ravishda aniqlanadi.

Kafan uch xil bo'ladi: zaruriy kafan, kifoya kafan va sunnatga muvofiq kafan. Bu uch xillik ham erkaklar, ham ayollar uchun amal qiladi:

1. **Zaruriy kafan** farz soqit bo'ladigan darajada bo'lib, mayitning badanini o'rasa bo'ladi. Mus'ab ibn Umayr (r.a.) bitta kiyim bilan kafanlanganini misol qilib keltirish mumkin.

2. **Kifoya kafan** - insonning hayotlik vaqtida eng kam miqdoridagi kiyimdir. Erkaklar uchun ikki bo'ladi: lifofa va izor. Ayollar uchun esa uch bo'ladi: lifofa, izor va ximor.

3. **Sunnatga muvofiq kafan** - erkaklar uchun izor, Kamis va lifofa, ayollar uchun esa lifofa, izor, Kamis, ximor va ikki ko'kragini bog'laydigan matodan iborat bo'ladi.

Kafanlik matosi, uch qavat ipdan teskari yo'nalishda tikilishi kerak. Agar kafanda tugun bo'lsa, marhumga savobi yetmaydi, degan tushuncha mavjud. Bu odat, ruslarda ham uchraydi [13, 239].

Kafan, vafot etgan erkak (bola) uchun o'n ikki yoshdan, ayol (qiz)lar uchun esa to'qqiz yoshdan bichiladi. Ammo bu umumiy belgilangan me'yor bo'lib, yoshroq bolalar uchun ham kafan tayyorlanadi.

XX asr boshlarida matolarning eni qisqa bo'lganligi sababli, kafan to'g'ridan-to'g'ri mayit ustiga tikilgan. Shuningdek, tiriklar egnida kiyim tikish yomon oqibatlariga olib keladi, deb hisoblanadi. Kafanning yengi va yoqasi bo'lmagani sababli, tirik insonlar kiyimni yelkasiga tashlab yurishni irim deb bilishadi va bu xatti-harakatga salbiy munosabatda bo'lishadi.

O'zbeklarda kafandagi tugun marhumning ruhining ikki dunyo orasida uchib yurishiga to'siq deb tushuniladi. Kafan, ipning bir qavat bo'lishi marhumning u dunyoga yakka ketayotganini bildiradi. Ayollar kiyimining o'ng tomoni chap tomoniga o'tkazilib tikilsa, kafan esa chapdan o'nga qarab o'raladi.

Mayit jinsiga qarab, kafanlash tartibi farq qiladi. Erkaklar uchun avval lifofa yerga yoyilib, izor uning ustiga qo'yiladi. Mayit, dastlab qamis bilan o'ralib, keyin lifofa va izor ustiga qo'yiladi. Izor, avval chap tomonidan, so'ng o'ng tomonidan o'raladi. Lifofa ham shunday o'raladi. Ayollar uchun ham lifofa va izor yoyiladi, keyin qamis kiyilib, sochlar ikki bo'lak qilib, ko'krakka qo'yiladi. Ximor, soch tepasi va lifofa ostiga joylanadi. Mayit so'ng, izor va lifofa bilan o'ralib, kafan ochilib ketmasligi uchun latta bilan bog'lanadi.

Kafanlik mato, oq rangli bo'lishi, xushbo'y narsa sepilishi, toq miqdorda sepilishi va juda qimmat bo'lmashligi muhim hisoblanadi. O'zbeklarda, agar kafanlanayotgan mayit tanasi yumshoq bo'lsa, bu yomonlik alomati deb hisoblanadi va yana bir o'lim bo'lishi mumkin, degan tushuncha mavjud. Ba'zi oilalarda, bunday holatda mayit yoniga uzun cho'p qo'yish an'anasiga rioya qilinadi.

O'zbeklarning vodiy va voha xaqqlarida mayit yuvib kafanlanyotganda "davra" urfi mavjud. Bu urfda, marhumning gunohlarini o'ziga olish uchun, biror kishi (odatda erkak) marhumning yotgan xonasiga qol tekizib, "boynimga oldim", "qiyomatgacha" kabi so'zlarni aytib, marhumning gunohlarini o'z zimmasiga olishga va'da beradi. Shofirkon o'zbeklarida bu urf, marhumning gunohlarini boshqa o'tkazish usulini saqlab kelgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek xalqining marhumni yuvish va kafanlash marosimlari, o'lim bilan bog'liq an'analar, o'zida chuqur ma'naviy va madaniy ma'lumotlarni jamlaydi. Bu urf-odatlar xalqimizning qadimiy diniy e'tiqodlari, islomiy ta'limotlar va zardushtiylik kabi diniy ta'sirlar bilan shakllangan. Xususan, marhumni yuvish, kafanlash, va bu jarayonlarda qatnashadigan g'assollar – har bir qadamda azizlarning ruhiga hurmat ko'rsatish, bir tomondan, salomatlik va tozalikni saqlashning ramzi, boshqa tomondan esa odamlar orasidagi birlashuv va yaxlitlikni anglatadi.

Marhumni yuvish va kafanlashning o'ziga xos jarayonlari, masalan, marhumning jinsi va yoshi bilan bog'liq ravishda, turli xalqlarda farqlanadi. O'zbeklarda, shuningdek, marhumning tanasining holatiga qarab, ushbu jarayonlarda kiritilgan an'analarning barchasi xalqning turmush tarzini, madaniyatini, va diniy e'tiqodlarini aks ettiradi.

Bundan tashqari, g'assollarning ishini ko'p hollarda meros qilib olish, shuningdek, marhumni yuvish va kafanlashda qatnashganlarning o'rtasida yashirin ma'nolarni topish mumkin. Ushbu an'analarda odatlarning o'ziga xosligini, vaqti-vaqti bilan bo'lgan o'zgarishlarni, shuningdek, urf-odatlar asosidagi e'tiqodlarning bir-biriga bog'liqligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dafn_marosimi
2. Толеубаев А.Т. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов (XIX – начало XX в.). – Алмата: Гылым, 1991.
3. Насриддинов К. XIX аср охири XX аср 80 йилларида Ўзбекларнинг ан'анавий дафн маросимлари (Қашқадарё вилояти маълумотлари асосида). Дисс... – Тошкент, 1995.
4. Наршахий М. Бухоро тарихи. – Тошкент: Фан, 1966.
5. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона, 2007.
6. Буриев О., Холиков Д. Оилада дафн ва таъзия билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар. – Тошкент, 2006.
7. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии (историко-этнографические очерки). – Москва, 1986.
8. Пайзиева М. Ўзбекларнинг анъанавий ва замонавий мотам маросимлари. – Тошкент: Янги нашр, 2014.
9. Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.
10. Бичурин Н. Я. (Иакифн) Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. М.: Изд-во АН СССР, 1950. Т. I.
11. Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. Ташкент: Изд-во литературы и искусства, 1988.
12. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма Самарканд -2 я половина XIX начало XX в. – Москва: Наука, 1982.
13. Кремлева И.А. Похоронно-поминальные обычаи и обряды// Русские: Народная культура. История и современность Т.3. Семейный быт. – Москва, 2000.